



ONA TILI DARSLARIDA BADIY MATN TAHLILI ORQALI O'QUVCHILARNING KOGNITIV (BILISH) QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Mahmudova Charos Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs 1-25-guruh magistranti

Email: charosmahmudova8@gmail.com

Orcid: 0009-0007-2933-8493

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18385467>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 27-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

*kognitiv qobiliyat, badiiy matn,
Bloom taksonomiyasi, funksional
savodxonlik, integratsiya, metod*

ABSTRACT

Maqolada ona tili darslarida badiiy matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini (idrok, xotira, tafakkur, xayol) rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari matnda keltirilgan notanish so'zlar imlosi va tahlili ustida ishlash texnologiyalari berib o'tiladi. Matnni o'qish vaqtida integratsiyalashgan metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berib o'tiladi

Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchilarga shunchaki bilim berishdan, ularda "o'rganishni o'rganish" kompetensiyasini shakllantirishga o'tdi. 2026-yilga kelib, O'zbekiston ta'lim tizimida "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanining integratsiyalashuvi kognitiv yondashuvni birinchi o'ringa chiqardi. Bugungi kunda har bir darslikdagi mavzular o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar rivojlangan mamlakatlar darajasidagi maktablarda o'qitiladigan darsliklarga asosan o'qitilish rejalashtirilgan. Rivojlangan davlat mamlakatlari esa bolani mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka chorlaydi. Ona tili va o'qish fanining birlashuviga asosiy sabablardan biri, o'quvchilar ona tili darsida ma'lum qoida bilan tanishsalar, o'qish darsida ularni amaliy jihatdan qo'llaydilar. Ona tili darslarida va o'qish darslarida ko'proq matn va rasmlar berilgan, chunki rasm va matnni tahlil qilish bolani og'zaki nutqini o'stiradi. Xalqaro baholash dasturlarining mamlakatimiz ta'lim tizimida ha joriy etilishi ta'lim sifatining oshishiga sabab bo'ladi. PIRLS xalqaro baholash dasturi aynan matnni o'qib tushunishga bo'lgan ko'nikmalarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Badiiy matn- bu shunchaki axborot manbai emas, balki murakkab kognitiv tuzilmadir. Matnni tahlil qilish orqali o'quvchi muallifning dunyo manzarasini tushunadi va o'zining intellektual salohiyatini boyitadi. Badiiy matn bilan ishlash o'quvchining kognitiv qobiliyatini shakllantiradi. Kognitiv qobiliyat –bu insonning ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlari majmuasidir. Ona tili darslarida bular quyidagicha shakllanadi:

- Diqqat: matndagi tayanch so'zlar va detallarni ilg'ab olish;
- Xotira: til birliklari va matn mazmunini eslab qolish;
- Tafakkur: matndagi mantiqiy bog'liqlikni tahlil qilish;
- Xayol: matn asosida yangi syujet yoki obraz yaratish.

Bitta matnni o'qib tahlil qilish orqali o'quvchilarning ongi ,dunyoqarashi rivojlanadi. Yangi tushunchalar o'rganishadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi psixologiyada(J.Piaje, L.Vigotskiy), kognitiv tilshunoslikda (J.Lakoff, Noam Xomskiy) va pedagogikada keng o'rganilgan. Benjamin Blunning "Taxonomy of Educational Objectives" nomli asarida kognitiv qobiliyatlarni darajalarga ajratib bergan. Bu hozirgi darsliklardagi savollar tizimining asosi hisoblanadi. Piter Stokvellning "Cognitive Poetics: An Introduction" nomli asarining bosh g'oyasi badiiy matn o'quvchi ongida qanday "ishlanishi" va obrazlar qanday shakllanishini o'rganuvchi zamonaviy yo'nalishlar sanaladi. O'zbekistonlik olimlar ham bu mavzu yo'nalishda ko'pgina ijodiy ishlar ishlab chiqilgan. Ona tili o'qitish metodikasi va badiiy matn tahlili bo'yicha maktab yaratgan olimlar: Abdulla G'ulomov va Maqsud Qodirovning "Ona tili o'qitish metodikasi" nomli asarida matn ustida ishlashning klassik usullari berilgan. Qozoqboy Yo'ldoshevning "Yoniq so'z", "Badiiy tahlil asoslari" nomli asarda matnni tahlil qilishda an'anaviy qoliplardan voz kechib, o'quvchining erkin va ijodiy fikrlashini birinchi o'ringa qo'ygan. Bu kabi olimlarning yaratgan asarlari bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan.

Natija va tahlil. Badiiy matn tahlili bir necha bosqichlarga bo'linadi.Bular:

❖ **Semantik bosqich (tushunish):** O'quvchi matndagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini anglaydi. Bu yerda lug'at boyligi va so'zning kontekstual ma'nosini aniqlash qobiliyati ishga tushadi.

❖ **Lingvo-poetik bosqich (tahlil):** matndagi badiiy tasvir vositalari tahlil qilinadi. Masalan, "Quyosh kuldi" iborasidagi metaforani tahlil qilish o'quvchidan abstract fikrlashni talab qiladi.

❖ **Konseptual bosqich (interpretatsiya):** bu eng yuqori bosqich bo'lib, o'quvchi matnning "tagma'nosini" anglaydi.Muallif nega aynan shu so'zni tanlagan? Bu savol o'quvchini tanqidiy fikrlashga chorlaydi.


Dars jarayonida o'tilgan matnlar turli xil metodlar orqali tahlil qilinadi. Bulardan biri "Pasport" metodi. Ushbu metodda asarning nomi, muallifi, qahramonlar, asar g'oyasi, xulosa kabilar yoritilib beriladi.



"PASPORT" METODI


1. **Asarning nomi:** _____
2. **Muallifi:** _____
3. **Qahramonlar:** _____
4. **Asar g'oyasi:** _____
5. **Xulosa:** _____

Bundan tashqari "Klaster" texnologiyasi orqali ham badiiy asar tahlili o'tkazilishi ancha samarali bo'ladi.



Badiiy asar tahlili uchun “T -sxemasi” ham eng ma’qul texnologiyalardan biri sanaladi. Bunda asar nomi yozilib, undagi ikki qahramon o’zaro tahlil qilinadi. Masalan, 2-sinf “O’qish savodxonligi” kitobida berilgan “Och bo’ri” ertagi berilgan. Ertak so’nggida esa matndagi notanish so’zlarning izohi lug’at qilib berilgan. Ushbu berilgan texnologiyada ertakda berilgan ikki xil obraz o’zaro tahlil qilinadi.

T-sxema



Matni tahlil qilishda quyidagi metodlarni batafsil yoritish mumkin:

BLOOM TAKSONOMIYASI

Bilish: matnda kimlar ishtrok etyapti?

Tushunish: voqealar nima uchun sodir bo'ladi?

Qo'llash: agar siz qahramon o'rnida bo'lsangiz, nima qilardingiz?

Tahlil: qahramonning xarakteridagi ziddiyatlarni aniqlang.

Sintez: matnga boshqacha yakun yozing.

Baholash: muallifning nuqtayi nazariga qo'shilasizmi?

Badiiy matn tahlili orqali kognitiv rivojlanish o'quvchining shaxsiy dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi dialektizmlar yoki arxaizmlarni tahlil qilish nafaqat til boyligini oshiradi, balki o'quvchining tarixiy va mantiqiy xotirasini faollashtiradi. 2026-yil o'quv darsliklarida matnlar ustida ishlash uchun ajratilgan vaqt (60foiz amaliyot, 40 foiz nazariya) bu maqsadga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida badiiy matn tahlili shunchaki lingvistik birliklarni o'rganish vositasi emas, balki o'quvchi shaxsining intellektual va kognitiv salohiyatini yuzaga chiqaruvchi murakkab pedagogik mexanizmdir. Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy-metodik xulosalar quyidagilardan iborat: badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchining kognitiv iyerarxiyasi-idrok etishdan tortib, mantiqiy xulosa chiqarish va baholashgacha bo'lgan bosqichlari faollashadi. Matndagi tasvir vositalarini tahlil qilish, voqea-hodisalarning yashirin bog'liqliklarini topishga o'rgatadi. Bloom taksonomiyasi va zamonaviy interfaol metodlarni matn tahliliga tadbiiq etish o'quvchilarda nafaqat akademik bilimlarni, balki hayotiy zarurat hisoblangan funksional savodxonlikni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning PIRLS va PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarni ko'rsatishga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov, Shirinboy Sharofovich, and Khusniddin Kupayinovich Khomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.
2. Khomidov, Khusniddin Kupaysinovich. "Cooperation between state and public organizations in the meaningful organization of youth leisure activities." *Thematics Journal of Social Sciences* 7 (2021).

3. Kupaysinovich, Khomidov Khusniddin. "INTERPRETATION OF STUDENTS'PATRIOTIC ISSUES IN ORIENTAL PEDAGOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).
4. Ҳомидов, Ҳусниддин, and Моҳинур Собирова. "ПЕДАГОГЛАРДА КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ." *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* 3.10 (2024): 24-27.
5. Kupaysinovich, Homidov Husniddin. "Theoretical Foundations of Working with Educational Information Competencies." *Journal of Preschool Education and Psychology Research* 1.2 (2024): 3-4.
6. Хомидов, Хусниддин, and Моҳинур Умирова. "ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ УЧАЩИХСЯ." *Международная конференция академических наук. Vol. 3. No. 12. 2024.*
7. Homidov, H. K. "Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning amaldagi holati va takomillashtirish yo'llari." *Экономика и социум* 5-1 (108) (2023): 83-87.
8. Купайсинович, Ҳомидов Ҳусниддин. "ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЖАМОАТ ТАШКИЛОТЛАРНИНГ РОЛИ." *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021* 1: 561.
9. Tursunova, Marjona, and Husniddin Homidov. "TECHNOLOGIES OF USING THE ORAL CREATION OF THE TURKISH PEOPLE IN THE SPIRITUAL ETHICAL EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS." *ТА'ЛИМ, ФАН ВА INNOVATSIYA.*

INNOVATIVE
ACADEMY